

PAPER

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jurayeva Nilufar Shovkat qizi^{1,*}

¹Nizomiy nomidagi ToshDPU Rus tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

*jurayeva@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik asoslari, dolzarbligi va zamonaviy ta‘limdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, hukumat qaror va farmonlariga tayanilgan holda bu boradagi islohotlar tahlil qilinadi hamda amaliy misollar keltiriladi.

Key words: kompetensiya, nutqiy savodxonlik, pedagogik ta‘lim, metodika, kommunikativ ko‘nikma.

Kirish

Zamonaviy ta‘lim jarayoni bo‘lajak pedagog shaxsida nafaqat kasbiy bilim va malakalarni, balki yuqori darajadagi nutqiy savodxonlik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida o‘qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki ta‘sirchan muloqotchi, ilhomlantiruvchi va samarali axborot yetkazuvchi sifatida maydonga chiqmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi bir qator davlat hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Shunday ekan, quyidagi hujjatlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6108-sonli Prezident Farmoni da ta‘kidlanganidek, “ta‘lim sifati o‘qituvchining kasbiy va kommunikativ tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liqdir”.

“Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4884-sonli Prezident Qarori da esa “pedagogning shaxsiy sifatleri qatorida uning nutqiy madaniyati va savodxonligi” ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi da belgilangan 5-ustuvor yo‘nalishda “o‘qituvchilarning muloqotga kirishish, o‘z fikrini aniq va lo‘nda ifoda etish kompetensiyalarini rivojlantirish”

zarurligi ko‘rsatilgan.

Nutqiy savodxonlik tushunchasi va uning ahamiyati

Nutqiy savodxonlik – bu shaxsning og‘zaki va yozma shaklda o‘z fikrini aniq, mantiqiy, grammatik jihatdan to‘g‘ri va madaniyatli ifoda eta olish qobiliyatidir. Ayniqsa, o‘qituvchi uchun bu kompetensiya uning kasbiy imidji va ta‘sirchanligi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, dars jarayonida:

- mavzuni tushunarli va aniq bayon etish;
- savollarga mantiqiy va mukammal javob qaytarish;
- o‘quvchilarni fikrlashga undovchi so‘zlashuv vositalaridan foydalanish – bularning barchasi nutqiy savodxonlik mahsulidir.

Nutqiy savodxonlikni rivojlantirish metodikasi

Mazkur metodika quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- a) Til materialini chuqur o‘zlashtirish – leksik va grammatik bilimlarni nutqda qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar orqali.
- b) Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari – esse yozish, hikoya qilish, munozara, taqdimot kabi topshiriqlar yordamida.
- c) Modellashtirilgan ta‘lim texnologiyalari – masalan, “rol

o'ynash" usuli orqali muayyan ssenariy bo'yicha o'qituvchi-o'quvchi muloqotini mashq qilish.

d) Matnlarga tahliliy yondashuv – ilmiy, badiiy va publitsistik matnlar asosida mantiqiy fikrlash va ifodali nutqni shakllantirish.

Amaliy misollar:

Misol 1: Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabalariga "O'z fikringizni 5 daqiqa davomida asoslab ayting" mavzusida og'zaki prezentatsiya topshirig'i beriladi. Bu orqali talabaning nafaqat lug'at boyligi, balki mantiqiy ketma-ketlikda fikr bayon qilish malakasi ham shakllanadi.

Misol 2: "So'z bilan ta'sir qilish" moduli doirasida talabalar mashg'ulotlar davomida bitta mavzu bo'yicha dalil va isbotlar yordamida qisqa chiqishlar tayyorlaydi. Bu usul o'qituvchilarning debat olib borish va fikrni ishonchli yetkazish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy savodxonligini shakllantirish – bu faqat til bilimi emas, balki fikrlash madaniyati, axborotni ta'sirli yetkazish san'ati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuvidir. Yuqorida keltirilgan davlat hujjatlari asosida bu yo'nalishda metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi va o'quv jarayoniga keng joriy etilishi zarur.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-sonli Prezident Farmoni, 06.11.2020.
2. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4884-sonli Prezident Qarori, 2020-yil 6-noyabr.
3. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-sonli PF, 11.09.2023
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi metodik tavsiyalari, 2022–2023-yillar.
5. Yuldasheva M. "Nutqiy kompetensiya va pedagogik faoliyat". – Toshkent: Ilm Ziya, 2021.